

O'ZBEK XALQINING IJTIMOIIY HAYOTIDA OILA VA NIKOH MUNOSABATLARINING TARIXIY TAHLILI

Dusnazarova Mavjuda Ilyamonovna

Terdu Yurdik fakultet "Davlat va huquq asoslari"

kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

<https://orcid.org/0007-0002-2036-8966>

dusnazarovamavjuda8@gmail.com

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila va nikoh jamiyatining eng kichik, biroq eng muhim tarkibiy qismi sifatida barqarorlik va rivojlanishning negizini tashkil etadi. Oila nikoh munosabatlari asosida shakllanadi. Nikoh – bu er va xotin o'rtasidagi maxsus ittifoq bo'lib, jamiyat va davlat tomonidan rasmiy ravishda tan olinadi hamda qo'llab-quvvatlanadi. Maqolada oila va hikohning ilk paydo bo'lish sabablari ilmiy manbalarga tayanib tahlil qilinadi. O'zbekistonning voha hududida oilaning jamiyatdagi o'rni nikohning muhimligi tarixiy manbalarga tayangan holda alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oila, Nikoh, monogamiya, monogamiya, levirat, sororat, ichkuyov va kuchkuyov, Avesto.

Аннотация: В данной статье семья и брак рассматриваются как наименьшие, но наиболее важные компоненты общества, составляющие основу его стабильности и развития. Семья формируется на базе брачных отношений. Брак — это особый союз между мужчиной и женщиной, который официально признается и поддерживается обществом и государством. В статье на основе научных источников анализируются первопричины возникновения семьи и брака. На основе исторических источников отдельно рассматриваются роль семьи в обществе и важность брака в оазисных регионах Узбекистана.

Ключевые слова: семья, брак, моногамия, левират, сорорат, примак (ичкүйөв и кучкүйөв), Авеста.

Abstract: In this article, family and marriage are considered as the smallest yet most vital components of society, forming the core of its stability and development. A family

is shaped on the basis of marital relations. Marriage is a special union between a husband and a wife, which is officially recognized and supported by society and the state. Based on scientific sources, the article analyzes the primary reasons for the emergence of family and marriage. The role of the family in society and the importance of marriage in the oasis regions of Uzbekistan are specifically examined relying on historical sources.

Keywords: family, marriage, monogamy, levirate, sororate, matrilocal residence (ichkuyov and kuchkuyov), Avesta.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Oila insoniyat jamiyatining eng kichik, biroq eng muhim tarkibiy qismi sifatida barqarorlik va rivojlanishning negizini tashkil etadi. Barqaror va mustahkam jamiyatlarda sog'lom oilalarga tayanadi. Sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetgan shaxslar, odatda, vatanparvarlik, mehribonlik, mehnatsevarlik va e'tiqodlilik kabi yuksak fazilatlar bilan shakllanadi. Shu sababli ko'plab diniy ta'limotlarda oila muqaddas qadriyat sifatida ulug'lanadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari, jumladan, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Rizouddin ibn Faxriddin o'z asarlarida oila tushunchasi keng qamrab olinib, uning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini chuqur tahlil etilgan. Oila tushunchasi - arab tilidan kirib kelib, lug'aviy jihatdan "bola-chaqa", "uy" yoki "urug'" kabi ma'nolarni bildiradi. U ijtimoiy birlik sifatida er-xotin, ularning farzandlari hamda eng yaqin qarindoshlardan iborat bo'lib, oila a'zolari odatda birgalikda yashagan holda barcha marosim va an'alarini jamoaviy tarzda o'tkazishgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Qadimgi O'rta Osiyo xalqlarida esa "oila" atamasi "Arqag'un" va "To'rkun" kabi istilohlar orqali ifodalangan bo'lib, ular qabila, urug' yoki ota-onaning yashash joyini anglatgan. Ushbu atamalar oila institutining qadimgi jamiyatlardagi ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatini aks ettirgan hamda uning jamiyat hayotidagi markaziy o'rnini yuksak darajada tasdiqlagan.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy jamiyat va oila haqida fikr bildirar ekan, jamiyatni to'liq va to'liqsiz shakllarga ajratadi. To'liq jamiyat uch qismdan tashkil topadi: ulkan jamoa, o'rtacha jamoa va kichik jamoa. Ulkan jamoa yer yuzining barcha hududlarida yashovchi insonlar birlashmasini anglatadi. O'rtacha jamoa esa muayyan xalqning jamoasidan iborat. Kichik jamoa esa ma'lum bir shahar aholisi birlashmasi sifatida qaraladi.

To'liqsiz jamiyatlarga qishloq, mahalla va oila jamoalari kiradi. Oila – eng kichik jamiyatdir. Qishloq shaharga tegishli bo'lib, shaharliklarga oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni yetkazish uchun xizmat qiladi. Mahalla shaharning bir qismi, ko'cha esa mahallaning bir qismi, uy – ko'chaning bir qismi, shahar – mamlakatning bir qismi sanaladi. Xalqlar turli mamlakatlardan iborat butun dunyo jamiyatidir[1:238].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Oilaning reproduktiv vazifasi -bu vazivaning asosiy mohiyati inson naslini davom ettirishdan iborat.

2. Oilaning tarbiyaviy vazifasi – Bolaning aqliy,jismoniy,axloqiy,estetik tarbiyasi oilada shakllanadi. Hayotining dastlabki ijtimoiylashuv bosqichi aynan oilada ro'y beradi. Oila bolaning tarbiyasini shakllantiradi, unga zarur bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi va natijada uni jamiyatga foydali shaxs qilib yetishtiradi

3. Oilaning iqtisodiy vazifasi – Oila iqtisodi, budjeti, daromadini rejali sarflash,kundalik harajat,mablag'yig'ish,tejab ro'zg'or yuritish hisoblanadi.

4. Xo'jalik yuritish vazifasi. Bu vazifaga uy xo'jaligini tashkil etish, oilani iqtisodiy

rejalarini tartibli tuzish va boshqarish, oiladagi ish taqsimotini amalga oshirish, shuningdek, oila boshi va imkoniyati cheklanganlarga g'amxo'rlik qilish kiradi

5. Generatsiya vazifasi. Har qanday xalq o'z kelajagini yaratish uchun o'zidan nasl qoldirishga intiladi va bunda oila asosiy vazifani bajaradi. Oila jamiyat uchun yangi a'zolari dunyoga keltiradi va ularning yashashini davom ettirishga ko'maklashadi.

6. Oila qning komunikatif vazivasi – Oilada o'zaro hurmat, bir-birini tushinish, axloqiy ma'naviy tarbiya,oiladagi yoshi kattalarni o'zaro bir-biri bilan munosabati tushiniladi[2].

7. Oilaning ijtimoiy nazorat qilish vazifasi – Oila azolarining huq-atvorini,axloqini nazorat qilish,er-xotinning oila va jamiyat oldidagi ma'suliyati,farzandlarning ota-ona,ota-onaning farzandlari oldidagi ma'suliyatini anglash[3:112-113].

"Nikoh" arabcha so'z bo'lib, "er-xotinlikni shariat yo'li bilan qonuniy rasmiylashtirish", "oilaviy ittifoq" degan ma'noni bildiradi[4:502]. Dunyoviy ma'nosiga ko'ra esa, nikoh – er-xotinning o'zaro roziligi bilan huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi, er-xotinlik hisoblanadi. XX asrda Surhon-Sherobod vohasi o'zbeklarida nikohning bir necha xil shakllari mavjud bo'lgan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, bu davrda vohaning o'troq aholisida "monogamiya" nikoh shakli rivojlangan bo'lib, ichki nikoh "monogamiya"ham qishloq aholisi va din vakillari orasida (asosan sayidlar va xo'jalarda) mavjud edi. O'rganilayotgan davrda voha o'zbeklarining nikoh marosimlarida qalinli nikohning "monogamiya", "endogamiya" va qalinsiz nikohning "levirat", "sororat", "ichkuyov" va "kuchkuyov" kabi shakllari mavjud bo'lgan. Levirat hamda sororat nikohning eng qadimiy shakllaridandir[5:128]. XX asrning ikkinchi yarmidan nikohning ayrim shakllari jumladan, levirat, sororat va kuchkuyov deyarli bu nikoh uchramaydi. XX asrning oxiriga kelib nikohning endogamiya va ichkuyov shakllarining ham kamayib ketganligini tadqiqotim davomida kuzatdim.

Oila nikoh munosabatlari asosida shakllanadi. Nikoh – bu er va xotin oʻrtasidagi maxsus ittifoq boʻlib, jamiyat va davlat tomonidan rasmiy ravishda tan olinadi hamda qoʻllab-quvvatlanadi. Aynan nikoh orqali turli oilalarda va farqli muhitda voyaga yetgan ikki yosh birgalikda hayot kechirishni boshlaydi. “Nikoh” atamasi arab tilidan kirib kelgan boʻlib, “uylanish”, “turmush qurish”, “er-xotinlik” yoki “birgalikda boʻlish” kabi maʼnolarni anglatadi. Aslida esa, nikoh shariat qoidalari asosida rasmiylashtiriladigan, er-xotinlik munosabatlarini tartibga soluvchi shartnoma sifatida qaraladi[6]. “Uylanmoq” atamasi oʻzakdagi “uy” soʻzidan olingan boʻlib, oʻzining mustaqil uyiga yoki oilasiga ega boʻlish mazmunini ifodalaydi. Ushbu atamalar nafaqat oilaviy munosabatlarning shakllanishi, balki ular bilan bogʻliq ijtimoiy va madaniy jarayonlarning ham mazmunini ochib beradi.

Oʻzbek oilasi qadim zamonlardan boshlab shakllanib, oʻzining tarixiy va madaniy ildizlari bilan ajralib turadi. Etnografik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, xalq ogʻzaki ijodi – qadimiy dostonlar, ertaklar va rivoyatlar – oilaning ilk shakllanish bosqichlari, xususan, matriarxat davri haqida muhim maʼlumotlarni saqlab qolgan[7]. M.O.Kosvenning tadqiqotlariga koʻra, matriarxal munosabatlar hukmron boʻlgan davrlarda nikoh asosan ayolning tashabbusi bilan shakllangan boʻlib, bu oila qurilishida ayolning ustun mavqeini aks ettiradi[8]. Ushbu tarixiy jarayonlar oila institutining rivojlanishidagi muhim bosqichlarni belgilagan[9:153].

Sarmishsoy (Navoiy viloyati) da saqlangan qoyalardagi petrograflarda (qoyatosh rasmlari) ayollar nihoyatda boʻychan va kuchli, erkaklar esa oriqliroq tasvirlangan[10:17]. Undan olis oʻtmishda ayollar erkaklarga nisbatan ancha baquvvat boʻlganligi anglashiladi. Shuningdek, sogʻlom erkaklar aslida jismonan baquvvat ayollardan tugʻilishi aqidasi ham xalq tarixiy xotirasida onaboshilik (matriarxat) davridan saqlanib qolgan boʻlsa ajab emas.

Qadimgi yunon va rim manbalari Markaziy Osiyoda yashagan qadimiy xalqlarda nikohga oid urf-odatlar va ayollarning jismoniy baquvvatligini tasdiqlovchi maʼlumotlarni oʻzida aks ettiradi. Jumladan, Rim tarixchisi

Klavdiy Elianning yozishicha, sak qabilalarida erkakning biror qizni oila qurish uchun tanlashi oʻziga xos bellashuv orqali amalga oshirilgan. Bu jarayonda erkak va ayol kurashda oʻz kuchini sinab koʻrgan, gʻolib qarorni qabul qilish va hukmronlik qilish huquqiga ega boʻlgan, magʻlub esa oʻz navbatida boʻysunishga majbur boʻlgan[11].

Zardushtiylikning qadimgi manbasi hisoblanmish “Avesto”da jamiyat, urugʻ, qabila, nikoh va oila masalalariga katta eʼtibor qaratilgan[12:48]. Masalan, “Avesto”ning “Mixr-Yasht” bobida taʼkidlanishicha, oilaning asosini katta ota urugʻi tashkil etgan[13]. Bunda katta uy – “nmana”, urugʻ – “vis”, tuman – “zantush”, yurt – “daxyush” deb atalgan. Ularning boshligʻi “pati” – “ota” deyilgan. Jumladan, uy egasi – “nmanapati”, urugʻ egasi – “vispati”, tuman egasi – “zantupati”, yurt egasi – “daxyupati” deb nomlangan[14:230].

Qadimgi jamiyatlarda katta ota urugʻi murakkab ijtimoiy birlik sifatida shakllangan boʻlib, uning tarkibiga uy egasi (nmanapati), uy bekasi (nmanapati), ularning farzandlari, nevaralari va chevaralari kirgan. Urugʻ tuzilishi, asosan, erkaklar orqali uzviylikni hisobga olgan holda tashkil topgan. Urugʻ erkaklar chizigʻi boʻylab sanalgan va “vis” deb ataluvchi qishloq taxminan 25 ta qarindosh oiladan (nmana) iborat boʻlgan. Ushbu qishloqni vispati boshqargan. “Vis” katta ota urugʻi sifatida, qizlarning farzandlarini oʻz tarkibiga kiritmagan, chunki bu bolalarning otalari boshqa urugʻ aʼzolaridan boʻlgan. Bu holat urugʻning erkaklar chizigʻi boʻyicha vorislikka asoslangan tuzilishini aks ettiradi va oʻz davrining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlaridagi asosiy tamoyillarni koʻrsatadi[15:56].

Zardushtiylik aqidalariga binoan, uylanmay boʻydoq yurish jamiyat tomonidan maʼqullanmagan. Qiz bola 15 yoshidan boshlab erga tegishi lozim boʻlgan. Agar qiz balogʻatga yetib, ota-onasi va urugʻining istagini nazarga ilmasa, ataylab erga tegmay, oʻzidan bola qoldirmasa, uni qopga solib, 25-marta qamchi bilan urishgan. Erkaklar 17 yoshidan uylanishga haqli boʻlganlar. Agar u uylanmay, oʻzidan bola qoldirishni istamasa, uni tamgʻalaganlar. Natijada, bunday erkak yomon

otliq qililib, beliga doimiy ravishda temir zanjir olib yurishga majbur qilingan[16].

Erkaklarga bir nechta xotin olishlariga ruxsat etilgan. Bunda birinchi xotin boshqa xotinlarga bosh bo'lgan. Yana erkak kishining uylanmog'i uchun moddiy va ma'naviy jihatdan baquvvat bo'lishi talab qilingan. Zero, o'z vaqtida yeya olmaydigan erkak o'z oilasi oldidagi burchini bajara olmaydi, binobarin, bunday erkakdan bola qolmaydi[17:80-81].

Islomdan oldingi davrlarda yurtimizda xotinlarning haq-huquqlarini himoya qilishga alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, 710-yilga oid sug'd yozuvlarida Uttegin otliq turk yigitining Navkat hokimi Cher Vaxzanak o'g'li otalig'idagi laqabi Chata bo'lgan Dug'dug'uncha ismli sug'd qiziga uylanishi bilan bog'liq nikoh bitigi keltiriladi. Unda yozilishicha, Uttegin o'z xotinini sevikli yor sifatida ardoqlashi, unga qarashi, oziq-ovqat, kiyim-kechak, taqinchoqlar bilan ta'minlashi, shuningdek, Dug'dug'uncha ham Utteginni suyuqli er sifatida hurmat qilishi, uning buyruqlarini qonun deb bilishi lozim edi. E'tiborli tomoni, ushbu bitimda kuyovning kelin tomoniga majburiyatlari ko'rsatiladi: agar Uttegin xotinidan so'roqsiz boshqa xotin yoki cho'ri olsa, u holda Uttegin Chataga 30 dirham toza kumushdan berib, uni qo'yib yuborishi shart edi[18].

Shuningdek, bitimda, kuyov Cher va uning o'g'illari oldida Chatani sotmaslik, qarz badaliga qullikka bermaslik, uning tutqun bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik, biror kishining qaramog'iga tushib qolmaslik uchun so'z beradi. Mabodo kimdir Chatani tortib olib tahqirlasa, Uttegin uni ziyon-zahmatsiz Cher va uning o'g'illariga qaytarishi, qaytarmasa, 100 dirham toza qiymatli kumush pul miqdorida tovon to'lashi zarur edi.

Qadimgi turk jamiyatida ayol muqaddaslik timsoli sifatida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Islomdan oldingi davrda turk ayollari ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, jumladan, urug' yetakchilari tomonidan tashkil etilgan yig'inlar – qurultoylar va bayram tadbirlarida qatnashish huquqiga ega bo'lgan. Hatto xoqonlar ham o'z qarorlarini qabul qilishda xotinlarining fikrlarini inobatga olishgan, bu esa ayolning

oila va jamiyatdagi muhim mavqeini ifodalaydi.

Qadimgi turkiy jamiyatda nikoh to'yidan keyin yangi oilaning yashash tartibi ko'pincha kelinning ota-onasi bilan birgalikda hayot kechirishni nazarda tutgan. Ushbu an'anaga ko'ra, kuyov vaqtincha yashash uchun kelin tomoniga turar-joy qurib berishni o'z zimmasiga olgan[19:112]. Bunday yashash tartiblari qadimgi ona urug'i boshqaruv tizimining qoldiqlari sifatida baholanadi va bu tizimdagi matriarxal unsurlar jamiyatning ijtimoiy hayotida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi[20:143].

Turkiy dostonlarda kuyov tanlash bellashuvlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Mashhur "O'g'uznoma" dostonida Boyrakaning Boybijon qizi Boychechak bilan bellashuvi tasvirlanadi. Bahodir otida qizni quvib o'tishi, unga qarab otilgan kamon o'qini uchayotgan vaqtda bo'laklab tashlashi va olishda uni yengishi lozim edi. Xuddi shunga o'xshash epizod "Alpomish" da ham uchraydi. Unda shartni Barchinning o'zi qo'yib, 90 ta alpni yiqitganga erga tegishini aytadi[21:206].

Surxon-Sherobod vohasida nikoh masalalari, asosan, shariat qoidalariga va odat huquqi an'alariga asoslanib amalga oshirilgan. Ushbu mintaqadagi odat huquqi asosida shakllangan nikoh turlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi va ular o'z davrida mahalliy ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynagan.

O'zbekiston hududlariga arablar kirib kelishi bilan nikoh va oila munosabatlarida islomiy tamoyillar asosiy yo'nalish sifatida shakllangan. Islom dini hukmronligi davrida ajdodlarimiz nikoh masalalariga alohida e'tibor qaratib, uni jamiyatning axloqiy va ijtimoiy me'yorlariga muvofiq tartibga solishga harakat qilganlar. Nikoh islom dinida eng muqaddas va barhayot qadriyat sifatida qaralgan bo'lib, uning haqiqiy shariat qoidalariga mos kelishi jamiyatdagi axloqiy barqarorlikning muhim garovi bo'lgan. Nikohni shariat qoidalariga muvofiq amalga oshirish uchun qat'iy shartlarga rioya qilish talab etilgan. Ushbu shartlar islomning asosiy me'yorlari, jumladan, halollik, o'zaro rozilik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga mos kelgan holda, oila

institutining mustahkamlanishini ta'minlashga xizmat qilgan:

Shariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchilardan bir qator shartlarga rioya qilish talab etilgan bular quyidagilr.

1. Nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi. Shariat qoidalariga ko'ra, nikohdan o'tayotgan kelin-kuyovning roziligi so'raladi. Ularni nikohga kirish uchun majburlash mumkin emas. Bunda nikoh o'qiyotgan domla uch marta qizdan rozilik so'raydi. Agar qiz javob bermasa, uning sukutini rizolik alomati sifatida tushunishgan.

2. Nikoh yoshiga yetish. Shariatga ko'ra, nikoh yoshi o'g'il bolalar uchun 12 yosh, qiz bolalar uchun esa 9 yosh deb belgilangan. Ammo amalda o'g'il bolalar 14 yoshga, qiz bolalar 12 yoshga yetganda nikoh tuziladi. Yosh qizlar jismoniy va ruhiy jihatdan turmush qurishga tayyor bo'lmagani sababli, ularni erta erga berish ba'zan og'ir oqibatlariga olib keladi. Misol uchun, bu holatlar chala tug'ilish, bolalarning erta nobud bo'lishi, qizlarning mayib bo'lib qolishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Nikoh paytida ikki erkak guvoh bo'lishi shart, chunki guvohsiz o'qilgan nikoh hisobga olinmaydi. Agar guvoh faqat bitta erkak bo'lsa, uning yonida ikki ayol guvohlik qilishi kerak. Shariatga ko'ra, ikki ayol guvohligi bir erkak guvohligiga teng hisoblanadi. Erkaklar uchun muomalaga layoqatli bo'lishi uchun 15-16 yoshga, qizlar esa 9 yoshga yetgan bo'lishlari zarur.

4. Mahr, ya'ni er tomonidan xotiga beriladigan sovg'ani belgilash zarur. Mahr bugungi kunda "qalin haqi" yoki "sut haqi" kabi tushunchalar bilan bog'liq emas. Aslida, mahr kelinning hurmatini ifodalovchi kuyovning chin dildan beradigan sovg'asi bo'lib, bu taqinchoq, kiyim-kechak yoki pul ko'rinishida bo'lishi mumkin. Mahr kelinning shaxsiy mulki hisoblanadi va unga hech kim egalik qila olmaydi. Shariat talablariga ko'ra, mahrning miqdoriga cheklov yo'q, lekin uning amaldagi qiymati muvozanatli bo'lishi kerak. Agar kelin xohlasa, eri foydasiga mahrdan voz kechishi mumkin. Nikoh vaqtida mahr aniq aytilmasa ham, keyinchalik kelinga berilishi shart hisoblanadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, oila tushunchasi faqat insoniyatga xos bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sanaladi. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, uning poydevori hisoblanadi. Hech qanday mubolag'asiz aytish mumkinki, oila jamiyatning tayanch negizi va barqarorligining asosi hisoblanadi. Chunki aynan oila insonning nafaqat hayotga kelishi, balki uning ma'naviy va axloqiy shakllanish jarayoni amalga oshadigan muqaddas makondir. Oila – bu er-xotin, ularning farzandlari va yaqin qarindoshlaridan iborat bo'lgan kishilar birligi, ya'ni xonadonni anglatadi. Shu bilan birga, oila tabiiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy tizim sifatida jamiyatda muhim o'rin tutadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi avlod asri, 2016. – B. 238.
2. Мирзоев Ш.А. Культура и традиции народов Дагестана. – Махачка ла: Изд-во НИИ педагогики, 2003. – 192 с.
3. Оила энциклопедияси “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Давлат илмий нашриёти Тошкент-2019. - B. 112-113.
4. Ўзбек тилининг изохли луғати. Икки томлик. Т. I. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 502.
5. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Т., 1960. – Б. 128.
6. Хайдаров М. М. Историческое развитие основ семейного права и его принципов в Республике Узбекистан / Современный мусульманский мир: электрон. журнал. – 2019. № 2. – С. 1-14. URL:<https://islamjournal.ru/wp-content/uploads/2019/06/ID63>.
7. <https://files.scienceforum.ru/pdf/2016/20839.pdf>

8. Хайдаров М. М. Историческое развитие основ семейного права и его принципов в Республике Узбекистан / Современный мусульманский мир: электрон. журнал. – 2019. – № 2. – С.1-14. URL:<https://islamjournal.ru/wp-content/uploads/2019/06/ID63>.
9. Kosven O.M. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. – Toshkent. 1960. – B. 153.
10. Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Toshkent: Fan. 1976. – B. 17.
11. Claudius Aelianus. On the Nature of Animals. Translated by A. F. Scholfield. Harvard University Press, Loeb Classical Library, 1958. - “De Natura Animalium” asarining VII kitobi, 18-bobi.
12. Ахмерова Ф. Фольклор турецкой обрядности. – Москва: Наука, 1985. – С. 48
13. Мирзоев Ш.А. Культура и традиции народов Дагестана. – Махачка ла: Изд-во НИИ педагогики, 2003. – 192 с.
14. Авеста. Опыт морфологической транскрипции и перевод В.С. Соколова. – СПб: Наука, 2005. – С. 230.
15. Аширов А. Об «Авесте» и семейно-бытовых обрядах зороастрийцев. – «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар», 2002. № 1. – С. 56.
16. Нуруллаева Ш.К., Эгамберганава М.Д. Вопросы семьи и брака в «Авесте» // Universum: общественные науки: электрон. научн. журн. 2016. № 6 (24). URL: <https://7universum.com/ru/social/archive/item/3338> (дата обращения: 16.04.2023).
17. Маковельский А.О. Авесто. – Баку: Изд-во АН Азербайджанской ССР, 1960. – С. 80-81.
18. Abdurahmonov A. A. (2000). O'rta Osiyo qadimgi huquqiy yodgorliklari. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. — 126–127 betlar.
19. Ахмерова Ф. Фольклор турецкой обрядности. – Москва: Наука, 1985. – С. 112
20. Денисов П.В. Этнокультурные параллели дунайских болгар и чувашей. – Чебоксары, 1969. – С. 143.
21. Книга моего деда Коркута. – Москва-Ленинград, 1962. – С. 206.